

# TUMAN HOKIMI KATTA HAYOTGA QADAM QO'YGAN YOSHLARNI TABRIKLADI

Avval xabar berganimizdek, tuman hokimi tumandagi umumta'lim va kasb-hunar maktablari, kollej hamda texnikum bitiruvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazmoqda.



Tumandagi 28-umumiyl o'rta ta'limg maktabida o'tkazilgan navbatdagi bitiruvchi yoshlar bilan uchrashuvda 9- va 10- umumiyl o'rta ta'limg maktablari bitiruvchilari ham qatnashdilar.

Tadbirda so'z olgan tuman rahbari yoshlarning kelgusi o'qishlariga hamda katta hayotga qadam qo'yganliklari bilan tabriklab, ta'limg kelgusi bosqichlarini ham davom ettirib, mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan komil inson bo'lishlariga ishonch bildirdi.

Uchrashuvda so'z olgan 28-maktab bitiruvchisi Mehriddin Mahpubidinov yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, maktabni oltin medalga tamomlagani va kelgusida Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olib, sud-huquq tizimida faoliyat yuritishini ta'kidladi. Ha, mazkur tadbirda ishtirok etgan Mehriddin kabi ilmga chanqoq yoshlar o'z oldilariga katta maqsad va rejalarini qo'yganlar.



Shuningdek, tadbirda tumanda jinoyatchilik va huquqbazarlikning oldini olish, unga shart-sharoit yaratgan omillarni bartaraf etish bo'yicha targ'ibot ishlari ham olib borildi.

Joriy yilning 1-choragida hududlarda amalga oshirilgan jinoyatlar tahlil qilindi. Profilaktika inspektorlarining mahalla mutasaddilari hamda ota-onalar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-15 15:33:32